



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ВАЗИРЛИГИ



ТЕРМИЗ ДАВЛАТ
УНИВЕРСИТЕТИ



ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ
ЖАМИЯТИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ТАБИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТИ
ГЕОГРАФИЯ КАФЕДРАСИ



ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Республика илмий-амалий конференцияси
материаллари

Термиз 2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ**

ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ

**ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТИ
ГЕОГРАФИЯ КАФЕДРАСИ**

**“ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИНГ
ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ”**

**РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

Термиз, 2020 йил 11 ноябрь.

Термиз 2020

nafaqat umumgeografi, balki umumilmiy tushunchalarga aylanmoqda. Qolaversa, oliv geografiya ta’limi darslik va o’quv qo’llanmalarida, geografik tadqiqotlar ifodasini topgan monografiyalarda yuqorida zikr qilingan termin-tushunchalar keng iste’molda amal qilmoqda. Shu sababli yaqin keljakda maktab geografiya darsliklarida ham ushbu tushunchalarni kiritish davr talabidir.

“O’ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI”
MAVZUSINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
O’QITISHNING AHAMIYATI

Usmonov M. R.

Jizzax davlat pedagogika instituti

Jizzax Davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo’nalishi 4-kurs talabalariga “Turizm va rekreatsiya geografiyasi” fani o’qitiladi. Ushbu fanni o’qitishdan asosiy maqsad, talabalarga xalqaro turizmnинг umumnazariy masalalariga oid tushunchalar berish, jahonning turli mamlakatlarida xalqaro turizmni rivojlantirish imkoniyatlari haqida tushuncha berishdan iborat. Ushbu fanda jahon mamlakatlari hamda O’zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini o’rganishga ham alohida e’tibor berilgan. Buni talabalarga tushuntirishda zamонавиy pedagogik texnologiyalar xususan ta’limning ilg’or uslublaridan foydalanish kata ahamiyatga egadir.

Binobarin, O’zbekistonning xalqaro turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari, xalqaro turizm mohiyati va ahmiyati haqida tushuncha berishda aqliy xujum, pinbord, birgalikda o’rganamiz, loyiha, keys stadi kabi ta’lim vositalaridan foydalanish samara beradi. Bunda talabalar quyidagi masalalarga e’tiborini qaratadi:

- Xalqaro turizm bu xalqaro kelishuvlar asosida xalqaro talab va huquqiy normalarga asoslangan sayohat qilish tizimi, hozirgi zamon xalqaro turizm XIX asrning ikkinchi yarimidan boshlab rivojlanma boshlashi, lekin, xalqaro turizm rivojiga birinchi va ikkinchi jahon urushi salbiy ta’sir ko’rsatishi, urushdan keyin davlatlar o’rtasida urushgacha bo’lgan aloqalar qaytadan tiklanganligiga talabalar e’tibor qaratishi lozim. Bundan tashqari, XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab xalqaro turizm jad’al rivojlanma boshlashi, hozirgi kunga kelib xalqaro turizm jahon xalqlari o’rtasida eng keng tarqalgan ommabop sayohat qilish turiga aylanganligi, xalqaro turizm jahon mamlakatlari iqtisodiyotida eng tez daromad keltiruvchi soha sifatida o’rin tutishini birgalikda o’rganamiz usuli orqali tushuntirish mumkin.

Xalqaro turizmnинг ahmiyati masalasida eng avvalo xalqaro turizmning iqtisodiy, sotsial, gumanitar ahmiyati va xalqaro turizmnинг gumanitar funksiyalarini o’rganishda talabalarga aqliy xujum orqali topshiriqlar berish mumkin. Bunda eng avvalo:

- Har qanday turistik tashkilotning mamlakat iqtisodiyotiga foya keltirishi;
- Xalqaro turizm-mamlakatida yangi iste’molchi turistlarning tarkib topishiga olib kelishi;
- Xalqaro turizm turistlarga oid keng iste’mol mollarining ishlab chiqarish;
- tanishuv, sog’lomlashdirish, ekskursiya va boshqalar orqali turbiznesning rivoji;
- transport tarmoqlarining rivojlanishi bilan shug’ullanuvchi tashkilotlar daromadining ortishi;
- aloqa kompaniyalari daromadining ortishi;
- turistlar uchun turli jihozlar ishlab chiqaruvchi firmalar daromadining ortib borishi;
- xalqaro turizm mahalliy sanoati, suvener ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlab chiqarish quvvatini ortishiga olib kelishi;
- turizm rivoji mamlakatlar valyuta tushishining barqaror o’sishiga ta’minlashi;
- turistik firmalar daromadining ortishi, mamlakatga soliqlar tushumining ortishiga olib kelishi kabi masalalarda talabalar aqliy fikrlash qobiliyatini oshirish mumkin. Bunda talaba mustaqil ravishda Internet, kutubxona va boshqa resurslardan foydalanib, mustaqil ravishida o’z ustida ishlashga xarakat qilishiga erishish mumkin.

Bundan tashqari, xalqaro turizmning rivojlanishi jamiyatning psixologik fiziologik resurslarining tiklanishiga va aholining ish qobiliyatining ortishiga olib kelishi;

- aholining bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanishiga olib kelishi;
- aholining ish bilan bandlik darajasining oshishiga;
- aholi pul daromadining ortishiga va aholi turmush darajasining yaxshilanishiga;
- mavjud rekreatsiya (sog'lomlashtirish, davolanish) resurslaridan samarali foydalanish, atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga olib kelishi haqida tushuncha beriladi.

Talabalarga xalqaro turizmning gumanitar ahamiyati haqida tushuncha berilganda, eng avvalo insonlarning ma'lum yoshdan boshlab atrofini bilishga intilishi, buning natijasi o'laroq ularning sayohat qilishga chiqishi yuz beradi. Buning natijasida odamlarning tabiatи ajoyibotlari, turli shaharlardagi arxitektura yodgorliklari, turli mamlakatlar aholisining milliy an'analari, urf-odatlari, to'y-marosimlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bularning barchasi odamlar dunyoqarashining yanada kengayishiga olib kelishi haqida tushuncha beriladi. Amaliy mashg'ulotda talabalar kichik guruhlarga bo'linib turistik mahsulotlar turlari va turist motivatsiyasi bo'yicha baxs olib borishi kata samara beradi.

O'qituvchi tomonidan talabalarga xalqaro turizmning gumanitar funksiyasi haqida tushuncha berilganda, eng avvalo turizmning tinchliksevar yo'naliishiga ega ekanligi, odamlarni atrof-muhitni sevish, unga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashga qaratilganligi haqida so'zlab beriladi.

Shuningdek, talabalarga xalqaro turizmning iqtisodiy, sotsial, gumanitar ahamiyati haqida tushuncha berilgach, O'zbekistonning xalqaro turizmini rivojlantirish bo'yicha imkoniyatlari haqida so'zlab beriladi.

Bunda eng avvalo O'zbekistonning geografik o'rni, uning Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida tutgan siyosiy, iqtisodiy, demografik salohiyati haqida tushuncha beriladi. Jumladan, o'lkamiz hududi g'arb bilan sharq, shimol bilan janubga boruvchi yo'llar chorrahasida joylashganligi, ushbu hudud orqali "Buyuk ipak yo'li" o'tganligi bu yerda qadimdan savdo-sotiqning rivojlanishiga olib kelganligi, bu esa o'lkamizda qadimdan sayyoqlikning rivojlanganligini ta'kidlash kerak.

Respublikamiz mustaqillika erishgandan keyin, Prezidentimiz boshchiligidagi, mamlakatimizda turizmning rivojlantirishning respublikamizga xos modelini ishlab chiqilganligi haqida tushuncha beriladi. Tarixiy shaharlarimizdagi 4 mingdan ortiq arxitektura yodgorliklari, xususan Toshkent, Samarcand, Buxoro va Xiva shaharlarining turistik imkoniyatlari, xususan bu shaharlar YuNESKO tomonidan ochiq osmon ostidagi muzeylar shahri deb etirof etilganligi qayd etish kerak.

Shu bilan Respublikamizda dam olish, davolanish turizm imkoniyatlarining katta ekanligiga talabalar e'tiborini tortamiz. Respublikamiz hududining 30 foizi tog'li hududlardan iborat bo'lib, ularda ko'plab mineral-shifobaxsh buloqlar, musaffo va salqin havo bu yerda dam olish, davolanish turizmini rivojlantirish imkoniyatini beradi. O'qituvchi tomonidan rekreatsiya turizmi to'g'risida tushuncha berilib uning imkoniyatlari va istiqbollari tushuntiriladi.

O'zbek xalqi boy an'analarga ega. O'lkamizda yashovchi xalqlarning to'y o'tkazish, kelin keltirish, qiz chiqarish, ko'pkari kabi to'ylari, qo'shiq va laparlari, badiy kashtachilik buyumlari xorijiy sayyoohlarda katta qiziqish uyg'otadi. Bu esa mamlakatimizda xalqaro turizmning etnografik turizm yo'naliishini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Talabalar etnoturizm bo'yicha mustaqil ishlar tayyorlaydi.

Bundan tashqari respublikamizning turli tuman mevalari, xususan, uzum, anor, anjir, torvuz va qovunlari dunyoga mashhur. Har yili respublikamizda avgust-sentabr oylarida qovun sayili o'tkaziladi. Bu esa o'lkamizda xalqaro turizmning agroturizm yo'naliishini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Demak, xulosa qilib shu narsani aytilish mumkinki, o'lkamiz xalqaro turizmning turli yo'naliishlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bundan tashqari, respublikamizda barqaror iqtisodiy rivojlanish, tinch totuv hayot, xalqimizning mehmondo'stligi, bag'rikengligi ham xalqaro turizmni har tomonlama rivojlantirish imkoniyatini beradi. Talabalarga respublikamizning turistik imkoniyatlari haqida tushuncha berilgandan so'ng "O'zbekistonning xalqaro turistik imkoniyatlari" mavzusi bo'yicha har biri kichik guruhlarda loyihamalar ishlab chiqilib, Power point dasturida slaydlar orqali loyihasini tayyorlanadi va taqdimot qilinadi, fikrlar erkinligi

ta'minlanadi va munozaralar olib boriladi. Bu talabalarning bilimini mustahkamlash, mavzuni chuqur o'rganishda muhim rol o'yndaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони, 2017 й.
2. Солиев А.С. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт (Танланган асарлар) / Монография. - Т.: Камалақ, 2013. - 227 б.
3. Алиева М.Т. Туристик мамлакатлар иқтисодиёти. Дарслик. -Т.: ТДИУ. 2007 й. 339 б.
4. Погодина В. Л. Теоретические основы туристско-рекреационного ресурсоведения (на примере Санкт-Петербурга). - СПб., 2005.
5. Маматкулов Х.М. “Халқаро туризм”, Самарқанд, 2003.
6. www.lex.uz
7. www.uzbektourism.uz.

**MAKTABDA GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING
O'RNI VA AHAMIYATI.**

Baratova D. N.

Samarqand davlat universiteti

O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari o'qituvchining texnologiyasidir. O'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyasi mahsulotidan o'qitishning texnik vositasi sifatida foydalanadi, zamonaviy texnologiyalarni qo'llab darsga tayyorlanadi,darsni tashkil qiladi,o'quvchilar bilimini nazorat qiladi va uning vazifasi ta'lif mazmunini takomillashtirish uchun kompyuterlashtirishning eng yuqori darajasidagi axborot texnologiyalarini ta'lif jarayoniga olib kirishdan iborat bo'ladi.

Bugun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti bois, maktabdagি dars va mashg'ulotlarda elektron darsliklardan foydalanilmoqda.Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish pedagogga katta yordam beradi.O'quv materiallarining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi darsda ko'rgazmalikni oshirib, o'quvchining mavzuni tushunishini yengillashtiradi.Slaydlarni o'quvchilarga tarqatma material sifatida berish o'qituvchiga qulaylik yaratadi Slaydlarga nisbatan o'quvhilar o'z fikrini yozishi, mavzu bo'yicha savollar berishi mumkin va shu tariqa bilimlarini boyitish imkoniga ega bo'ladilar. Bunday metodika o'qituvchiga yangi axborotlarni ko'paytirib borish, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi o'zgarishi bilan ma'lum bir mavzuga mo'ljallangan slaydlarni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.Savollar soni nazariy va amaliy materiallarning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi hamda malakaning shakllanishiga bog'liq ravishda berib boriladi.

Elektron darslik – mustaqil ta'lif olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin.o'quv materiallari o'quvchiga interfaol usullar asosida yetkaziladi. Audio va video animatsiyalar imkoniyatlardan o'rinni foydalaniladi.Elektron darsliklarning an'anaviy usullarga nisbatan quyidagi afzalliklarini keltirish mumkin:

1. O'quv axborotlarning taqdim etilish shakli.
2. Kerakli axborotlarni qidirish imkoniyati.
3. Olingan bilimlar darajasini nazorat qilish usullarining mavjudligi.
4. O'qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi.

Shulardan kelib chiqib, elektron darsliklarni yaratishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin:

- Multimedia ma'lumotlari (matn, grafik, audio, video, animatsiya) asosida axborotlarni taqdim etish;
- Qidirish va yo'llash imkoniyatlarini kiritish;
- Olingan bilimlar darajasini nazorat qilishning obyektiv tizimini kiritish;
- Tarmoq texnologiyalari asosida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro interaktiv va teskari aloqasining yo'lga qo'yilishi.

23.	Алламуратов Ш., Алламуратова Х. Ўзбек ономастикасида амударё гидронимлари хақида айрим мулоҳазалар	64
24.	Умарова М. Ҳ. Сурхондарё вилоятининг халқ, қабила ва уруғ номлари асосида шаклланган топонимлари	66
25.	Низомов А., Махмудова Ч. Маҳмуд Қошғарий илмий меросининг ўрганилиш тарихи	69
26.	Амонов Х. Н. Дарсдан ташқари ишлар ва синфдан ташқари машғулотларда педагогик технологиялардан фойдаланишни лойиҳалашириш	72
27.	Валиева Ш.И., Тошмуродов Ш.З. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг география фанига қўшган ҳиссаси	75
28.	Matsaidova S.X., Abdullayev A.G., Po'latova Q.D. Zamonaviy geografiya ta'limida geografik madaniyatni shakllantirish muammolari	77
29.	Абдуллаева Д. Н. Электрон методик таълим воситалари – география дарсларининг самарадорлигига кафолат омили	78
30.	Abduvohidov S., Abdullayev S. Maktab geografiya ta'limida tabiat komplekslari to`g`risida tasavvurlarni shakllantirish	81
31.	Usmonov M. R. “O’zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish imkoniyatlari” mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o’qitishning ahamiyati	84
32.	Baratova D. N. Maktabda geografiya fanini o’qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning o’rni va ahamiyati	86
33.	Hoshimova M.H., Yusupboyeva N.X., Dadaxonova M.M. Geografiya darslarini tashkil qilishda ko’rgazmali qurollarning tutgan o’rni	87
34.	Haydarova S. A. Geografiya darslarida elektron taqdimotlardan foydalanish	89
35.	Abduhaliqov K., Qarabekov M. Geografiya darslarida o‘quvchilarni mustaqil ishlarni tashkil qilish metodikasi	91
36.	Muqumova H.I., Qozoqova O.X. Geografiya ta’limi samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	93
37.	Djo’raboeva X. Sh. Maktab geografiya ta’limida tajriba metodidan foydalanish masalalari	96
38.	Халилова Х.Т. География таълимини такомиллаштириш масалалари	98
39.	Абдуллаева Д. Н. География фани ўқитувчиларининг компьютер саводхонлигини оширишда “қизиқарли география” электрон таълим ресурсининг ўрни	100
40.	Абдураҳманов С.Т., Назарова Д.Н. Умумий ўрта таълим тизимида экологик таълимни такомиллаштириши	102
41.	Djuraboeva X. Sh. Geografiyadan sinfdan tashqari ishlarning ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishdagi o’rni	104
42.	Abdiminov T. A. Umumta’lim maktablarida geografiya fanini o’qitishda geografik atlaslardan foydalanishdagi muammolar va ularning yechimlari	106
43.	Абдуллаев И.Х., Сафаров У.Х., Сафарова Н.И., Нишанова Ш.Ф. Новые педагогические технологии в географическом образовании и некоторые вопросы применения модульного обучения	108
44.	Sultanova N.B., To’uchiyeva G. Tabiiy geografiya ta’limi mazmunini nostonart test topshiriqlarida ifodalash	111

II ШЎЬБА. ИҚТИСОДИЙ ВА ИЖТИМОИЙ ГЕОГРАФИЯ

45.	Тожиева З.Н., Жалолиддинов Н.Х. Иқтисодий география, геодемография ва минтақавий демография	115
46.	Komilova N.Q., Sh.R.Ergasheva., Allanov Sh.Q., Siddiqov S.Sh. Global pandemiyalar geografiyasi	117
47.	Қодиров Р. Б. Мехнат ресурсларидан фойдаланишнинг айрим масалалари	120